ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43, Termez city.
Phone: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«DEVONU LUG'ATI-T-TURK» ASARIDAGI JANGNOMA SHE'RLAR VA ULARNING SEMANTIKASI

Rahmatova Gavhar Omonovna,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

«Devonu lug'ati-t-turk» asarida keltirilgan turkiy xalqlarning mardligi va jasoratidan so'zlovchi xalq og'zaki ijodi namunalari o'zining qofiyalanish usuli va ohangdorligi bilan ajralib turadi. Jangnomalardan olingan parchalarda jasur va mardimaydon yigitlarning qahramonliklari ulug'lanadi. Xalq ichidan chiqqan pahlavon, mard yigitlar ulug'lanib, beqiyos kuch-qudrati ta'riflanadi. Shu orqali muallif o'quvchiga o'sha davrdagi turkiylar udumi, dunyoqarashi va janglardagi pahlavonliklari to'g'risida darak beradi.

Tadqiqotchi I.V. Stebleva jangnoma she'rlarni quyidagi guruhlarga bo'ladi:

1. Tangutlar bilan jang.
2. Uyg'urlar bilan bo'lgan jang tasviri.
3. Yabaqular bilan bo'lgan jang tasviri. Bu turkum she'rlari ikki guruhga bo'lib beriladi. Bunga sabab parcha oxiridagi so'z qofiyasi bilan bog'liq.
4. Jang tasviri she'rlari[1].

Jang tasviriga bag'ishlangan she'riy parchalar semantikasini ochib berish uchun ularni tematik guruhlarga bo'lgan holda tahlil etish lozim. Ular quyidagicha:

1. Jang tasviri, jangga chorlovlar, mardimaydon yigitlar jasoratini madh etuvchi she'rlar:

a) *Jang tasviri.* Bunday she'riy parchalarda jang manzaralari, shiddatli hujum, alplar to'qnashuvi, qilichbozlik va nayzabozliklar tasvirlanadi. Misol uchun:

اَرَنْ اَلْبِی اُقُشْتِیلَارْ — *Erän alpī oquštīlar,*
قِنْغِیرْ کُوزُن بَقِشْتِیلَارْ — *Qinğīr kōzin baqīštīlar,*
قَمُغْ تُلْمُنْ تُقُشْتِیلَارْ — *Qamuğ tulmun tuquštīlar,*
قِلِجْ قِنْقا کُجُنْ سِغْدِی — *Qīlīč qinqa kūčün sīğdī* (DLT.I.192).

Ma'nosi: Yigitlar bir-birlarini chaqirishdi, bir-birlariga qing'ir ko'zlari bilan o'qrayib qarashdi. Har xil jang qurollari bilan urushdilar. Qilich yuzlari qon bilan qalinlashib, qinga kuch bilan sig'di (DLT.1.192).

Oquštīlar, baqištīlar, tuquštīlar so'zlari bilan qofiyalangan ushbu parcha orqali shiddatli jang tasvirini ko'z o'ngimizga keltiramiz. Dastavval, mard yigitlarning jangga chorlovlari, bunda jangari saflarning bir-birlarini taqozo etib harakatlanishi beriladi. Ular dushman jangchilariga o'tkir, g'azabli nigohlarini qadadilar. Bundan jangchilarning dushmanga munosabati, qahrini ko'rish mumkin. Bu shunchaki o'zaro jang emas. Bu ozodlik, vatanparvarlik kurashi. Chunki she'rda jangchilar turli xil qurollarda kurashdilar deyilmoqda. Bu o'rinda biror yurtga bostirib kelgan yovga nisbatan qarshi chiqqan xalqning qo'liga tushgan narsa bilan olg'a borishini tushunish mumkin. Jang tasviri ham o'ta jonli beriladi. Qilichlar qonlashib, qiniga kuch zarbi bilan kiritiladi.

b) *Jangga chorlovlar.* «Devonu lug'ati-t-turk»dagi jangnoma she'rlarda mardimaydon yigitlarni jangga chorlovchi hayqiriqlar anchagina. Misol uchun:

یغنک تبا تترو بقب بکدنک بلا — *Yağīŋ tarə titrū baqīp bükdäŋ bilä,*
اغرب قلی کلسا ستکا قرشو سلا — *Oğrap qalī kelsä seŋä qaršu sülä* (DLT.III.287).

Ma'nosi: Dushmaningni diqqat bilan kuzat, bek nayzasini bilagingda tut. Bekka qarshi yov kelsa,

[1] Қаранг. Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. – Москва: "Наука", 1976. – С. 204-209.

unga qarshi jang qil.

Parchada beklikni himoya qilish nazarda tutilmoqda. Buning burchligini estatib, er kishiga nasihat qilinadi. Bunda er kishiga yurtga rahna solmoqchi bo'lgan dushman oddiy bo'lmasligi, shuning uchun dushmanni diqqat bilan kuzatib, unga qarshi jangga shay turish lozimligi uqtirilmoqdaVatan oldidagi burchni eslatib, beklik nayzasini mahkam tutgil deydi. Agar bekka qarshi dushman jang qilishni boshlasa, sen ham unga qarshi jang bilan javob ber, deya pand-nasihat qilinadi. Turkiy xalqlarining bu kabi she'rlarida biz turkiylarga xos bo'lgan jangavorlik va shiddatkorlikning namoyon bo'lganini ko'ramiz.

Yuqoridagi parchadan yurt mustaqilligini avaylab-asrash, tashqi dushmanlarga qarshi kurashish nafaqat hozirgi davr, balki qadimdan turkiy xalqlar milliy ruhining asosiy bo'g'ini bo'lib kelgan.

v) *Mardimaydon yigitlar jasoratini madh etuvchi she'rlar* o'zining badiiyligi, mardonavor ruhi bilan ajralib turadi. Misol uchun:

اَلْبْ اَرَنْ نی اُدُزْدِمْ *Alp eränni uδurdïm,*

بَیْنِنْ اَنِکْ قُدَرْدِمْ *Boynïn anïŋ qaδïrdïm,*

اَلْتُنْ کُمُشْ یُلُرْدُمْ *Altun, kümüš yüδürdim,*

سُوسِی قَلِنْ کیمْ اُتارْ *Süsi qalïn kim ötär* (DLT.I.351).

Ma'nosi: Jangni ta'riflaydi: dushman askarlarini ajratib, to'zitib yubordim. Jamoa takasining bo'yinlarini egdirdim, oltin-kumushlarini ortib yukladim, odam o'tolmas darajada askari qalin edi.

Mazkur to'rtlikda alp yigitning dushman askarlariga qarshi qilgan jangi va uning g'alabasi haqida so'z boradi. Aytadi: «Dushman askarlarini to'zitdim, ajratdim. Jamoaning botirlarini bosh egdirdim». Mana shu o'rinda o'ljalar haqida aytadi: «oltin-u kumushlarini ortib yukladim». Botir yana dushman askarlarining ko'pligi va saflari qalinligini aytib o'z qudratini namoyon etadi.

g) *Jang o'gitlari.* Shiddatli janglarda g'olib chiqish uchun, albatta, puxta tayyorgarlik va to'g'ri siyosat lozim bo'ladi. Biz buni «Devonu lug'ati-t-turk» asarida keltirilgan she'riy parchalar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Jang maydoniga tushishdan avval mashvarat, kengashlar o'tkazilgan. Misol uchun:

منک بلا کینکشدی *Meniŋ bilä keŋäšdi,*

بلکی منکا تنکشدی *Bilgi meŋä teŋäšdi.*

ارن بلا سنکشدی *Erän bilä söŋüšdi,*

الب لار بشن ال یوا *Alplar bašïn ol uuvar* (DLT.I. 402).

Ma'nosi: Jang haqida suhbat qilgan bir kishi to'g'risida aytadi: «Men bilan kengashdi, (bu haqda) uning fikri mening fikrimga mos keldi. Jangda erlarni uzoqlarga uloqtirdi. Botirlarning boshlarini koptok singari dumalatdi».

Bu parcha orqali turkiy xalqlarning jangovor ruhinigina emas, kengashuvchanlik va tadbirli jang qilish salohiyati va fikrlarining mushtarakligini ham ko'rishimiz mumkin. Bundan bizga jangda jismoniy kuch emas, avvalo, to'g'ri qaror qilish va tadbir-majlisli bo'lish, shunga muvofiq ish ko'rish nihoyatda muhim ekanligi ibratdir.

So'nggi ikki misra orqali ko'z o'ngimizga turk pahlavonlarining jangavor qudrati va shon-shuhrati keladi. O'tmishda turkiy askarlar o'ziga xos tayyorgarlikka ega va tajribali, o'z turkiy dunyosi uchun kurashuvchi kishilar ekanligi madhi ifodalanganini kuzatamiz.

2. Tangut va Qatunsini o'rtasidagi jang tasviri ifodalangan she'rlarda ikki qabila o'rtasidagi jang tasviri berilgan.

I.V. Stebleva o'zining «Tyurkskaya poetika. Etapы razvitiya VIII-XX vv.» asarida Tangut va Qatunsini o'rtasidagi jang to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: «Vse dvadtsat chetverostishiy etogo sochineniya napisanы metrom *xazadj-i murabb'a-i sālim* – chetыrexstopnыy pravыlnыy (polnыy) *xazadj* po formule: mafā'ilun / mafā'ilun, t.ye. v – – – / v – – – (sleva napravo)[1].

Yana olima o'z fikrini to'liq isbotlash uchun *Qatunsīnī* so'zi bilan boshlanuvchi quyidagi parchani misol qilib keltiradi:

[1] Стеблева И.В. Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв. – Москва: Восточная литература, 2012. – С. 79.

قتن سنی جغیلادی *Qatunsīnī čoğīladī,*

تنکت باکن یغیلادی *Tāŋüt begin yağīladī.*

قنی اقب ژغیلادی *Qanī aqīn žağīladī,*

بین سوڤن قزل سغدی *Boyun suwīn qīzīl sağdī* (DLT.III.338).

Ma'nosi: Qatunsini xalqi baqirib, bo'kirib, tangut xalqi va ularning begi bilan yovlashdi, hattoki, qonlari suv sharillagandek, sharillab oqdi. Bo'yinlar qizil suv bilan, ya'ni qon bilan sog'ildi.

Hazajning birinchi rukni to'rt bo'g'inli *«Qatunsinī»* so'zidan tashkil topgan. Unda birinchi bo'g'in – *«Qa»* ochiq va qisqa bo'lib, arab grafikasida harakatli harf bilan ifodalangan (*qaf* harfiga fatha harakati qo'yilgan). Ikkinchi bo'g'in – *«tun»* yopiq va cho'ziq bo'lib, damma harakatli *ta* harfi va harakatsiz *nun* harfi bilan ifodalangan. Uchinchi bo'g'in – *«si»* ochiq, ammo cho'ziq bo'lib, kasra harakatli *sin* harfi va harakatsiz *ya* harfi bilan ifodalangan. To'rtinchi bo'g'in – *«nī»* ham ochiq, ammo u ham cho'ziq, chunki u kasra harakatli *nun* harfi va harakatsiz *ya* harfi bilan ifodalangan.

Ikkinchi rukn to'rt bo'g'inli *«čoγylady»* so'zidan tuzilgan bo'lib, uning birinchi bo'g'ini – *«čo»* – ochiq va qisqa, damma harakatli *«chim»* harfi bilan ifodalangan; ikkinchi bo'g'ini – *«γy»* – ochiq, lekin cho'ziq, kasra harakatli *«g'ayn»* harfi va harakatsiz *«ya»* harfi bilan ifodalangan; uchinchi bo'g'ini – *«la»* – ham ochiq, ammo cho'ziq, fatha harakatli *«lam»* harfi va harakatsiz «alif» harfi bilan ifodalangan; to'rtinchi bo'g'ini – *«dy»* – ochiq, ammo cho'ziq, kasra harakatli «dol» harfi va harakatsiz «yo» harfi bilan ifodalangan.

«Devon»dagi boshqa barcha adabiy matnlar singari ushbu matnning ham butun to'rtliklarini shu tarzda tahlil qilish mumkin. Bu yerda aruz qoidalariga to'liq rioya etilgan: ochiq bo'g'inlar – qisqa yoki cho'ziq, yopiq bo'g'inlar esa faqat cho'ziq bo'ladi va bu holat arab yozuvida sinchkovlik bilan qayd etilgan.[1]

Yuqoridagi parcha orqali ohangdorlik va jangavorona, kurashuvchanlikka chaqiruvchi misralar yoki qofiya so'zlari jang she'rlarining asosiy xususiyati bo'lganini ko'ramiz. Chunki bunda o'quvchi o'zining ong-shuuri bilan bu holatni his etishi talab etiladi. Ushbu uzindida berilayotgan tasvirdan ikki qo'shni shahar aholisining jangini, urushning qanchalar talofatli yakunlanganligini, har birining o'z beklari shu jangga boshlaganini bilib olishimiz mumkin. Jang tasvirirni berishda esa, *čoğiladī, uağiladī, žağiladī, sağdī* kabi so'zlar bo'yoqdorlik ifoda etganligini kuzatamiz.

Bunday she'rlar qaysidir ma'noda bilim beradi. Chunki jang tasviriga bag'ishlangan she'rlardan qadimgi turkiy xalqlarning yashagan shaharlari, qishloqlari, ularning qo'ni-qo'shnilari haqidagi ma'lumotlarni bilib olamiz.

Bunda Qatunsini begi Tangutlar ustiga yurish qiladi va bu urushda Tangutlar g'alaba qozonadi. Tangutlar g'alabasi quyidagi baytda beriladi:

تنکت خانی یبیلادی *Tāŋüt xanī yubīladī,*

الم برلا تبولادی *Ölüm birlä töpüládi.*

قدش لاردی تبالادی *Qaδašlarī tabaladī,*

الم کورب یزی اغدی *Ölüm körüp yüzi ağdī* (DLT.III.340).

Ma'nosi: Tangut xoni Qatunsining xonini aldadi, unga o'lim zarbasini berdi. Yengilganini ko'rgan qarindoshlari-ning ori keldi, bu holga yov sevindi. O'limga yo'liqqach, rangi o'chdi, yuzlari o'zgarib ketdi.

3. *G'ayridinlar bilan bo'lgan jang tasvirlari.* Bunday parchalarda g'ayridinlar ustiga qilingan yurishlar tilga olinadi. Uyg'ur, yabog'u va boshqa qabilalar shular jumlasidandir. Misol uchun:

کَلْدی مَنکا تاتْ *Keldi meŋä tat,*

اَیدِمْ اَمْدی یاتْ *Aydim emdi yat,*

[1] Стеблева И.В. Тюркская поэтика. Этапы развития VIII-XX вв. – Москва: Восточная литература, 2012. – С. 79.

قُشقا بُلُبْ اَتْ *Qušqa bolup et,*

سَنی تِلاڑْ اَسْ بُری *Seni tilär as, böri* (DLT.I.72.).

«Mening oldimga bir tot, ya'ni bir uyg'ur kofiri keldi. Seni yirtqichlar, bo'rilar parchalasin, qushlarga yem bo'l dedim.

G'ayridinlar bilan bo'lgan kurashlar ichida asir tushganlarga qarata aytilgan hayqiriqlar ham uchraydi:

کُرُوبْ نَجُکْ قَجْمَدِنْکْ *Körüp nečüg qačmadïŋ?*

یَمَر سُقُنْ کَجْمَدِنْکْ *Yamar suwïn kečmadïŋ?*

تَقارِنکْنِی سَجْمَدِنْکْ *Tawarïŋnï sačmadïŋ?*

یِسوُنْ سَنِی اارْ بُرِی *Yesün seni a:r böri* (DLT.I.108).

Ma'nosi: Yengib asir qilinganga qarata aytadi: Nega meni ko'rish bilanoq qochmading, nega Yamar suvini kechmading, nega boshingni qutqarish uchun mollaringni tashlab keta qolmading? Mana endi o'ldirilding. Endi seni sirtlon yesin.

Yana bir o'rinda g'ayridinlar bilan jang qilishga qarata aytilgan hayqiriq beriladi:

تُنْلا بِلا کُجالِمْ *Tünlä bilä köčälïm,*

یَمَرْ سُقْنْ کَجالِمْ *Yamar suwïn kečälim,*

تَرَنکُوکْ سُقْنْ اِجالِمْ *Teräŋük suwïn ičälim,*

یِقْغا یَغِی اُقْلَسوُنْ *Yuwğa yağï uwulsun* (DLT.II.11-12).

Ma'nosi: Kechasi bilan ko'chaylik. Yamar suvini kechaylik, bu yil vodiydir. Qaynab chiqayotgan suvini ichaylik. Bizga itoat qilmaydigan dushman parcha-parcha bo'lsin.

Mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan faxriyalarning dastlabki ko'rinishini ham shu guruh she'rlaridan joy olgan:

اَنِنکْ ایشِنْ کَجوُرْدُمْ *Aniŋ išïŋ kečürdüm,*

ایشِنْ یِما قَجوُرْدُمْ *Äšin yimä qačurdum,*

اوُلوُمْ اوُتِنْ اِچوُرْدُمْ *Ölüm otïn ičürdüm,*

اِچْتِي بُلُبْ یوُزی تَرِنْ *Ičti bolub yüzi tärïn* (DLT.I.82).

Ma'nosi: «Uning ishini bitirdim, hamrohini ham qochirdim. O'lim og'usini ichirdim, yuzini burishtirgan holda ichdi».

Ushbu she'riy parcha *a-a-a-b* shaklida qofiyalangan bo'lib, jangchi o'z qahramonligidan madh etmoqda.

Yana bir misol:

قُدِی قِقِرِبْ اُغُشْ تِرْدِمْ *Quδï qïqïrïb oğuš terdim,*

یَغِی قارو کِرِشْ قُرْدُمْ *Yağï qaru kiriš qurdum,*

تُقُشْ اِچْرا اُرُشْ بِرْدِمْ *Toquš ičrä uruš berdim,*

اَرَنْ کُورُبْ بَشِی تِغْدِی *Erän körüb baši tiğdï* (DLT.II.87-88).

Ma'nosi: Quyiga qiyqirib qalbimni to'pladim. Dushmanga qarshi o'qni kamonga joyladim. Jang

maydonida otishdim. Mening yigitlarimni ko'rib, boshini panaga oldi.

«Devonu lug'ati-t-turk»dagi she'rlar mavzu ko'lami jihatidan rang-barangdir. Shu yo'sin jang she'rlari alohida o'ringa ega. Ular mavzu qamrovi va badiiy o'zgachaliklari e'tiborli.

Asardagi jang she'rlari o'zining pafosi, tasvirning jonli berilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Jangnoma she'rlarda asosiy e'tibor mamlakatni dushmanlar qo'liga o'tib ketishidan avaylab-asrash, yurt tinchligi uchun pahlavonlarni xushyorlikka chorlovchi she'riy parjalar beriladiki, bu mavzu hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Rezyume. Mazkur maqolada Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlarning semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Jang tasviri, jangga chorlov, qahramonlikni madh etish va harbiy o'gitlarni ifodalovchi she'riy parchalar mazmunan guruhlarga ajratilib o'rganilgan. Tadqiqot natijasida ushbu she'rlar qadimgi turkiy xalqlarning vatanparvarlik ruhi, harbiy madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim manba ekanligi aniqlangan.

Resume. This article examines the semantic features of war poems in Mahmud al-Kashgari's Dīwān Lughāt al-Turk. The poems describing battles, calls to combat, heroic deeds, and military advice are analyzed from a thematic perspective. The study concludes that these poems serve as an important source for understanding the patriotism, military traditions, and spiritual values of the ancient Turkic peoples.

Резюме. В статье анализируются семантические особенности военных стихотворений, представленных в произведении Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-тюрк». Поэтические тексты, посвящённые описанию сражений, призывам к борьбе, прославлению героизма и военным наставлениям, рассмотрены в тематическом аспекте. Исследование показывает, что данные стихотворения отражают патриотизм, воинские традиции и духовные ценности древних тюркских народов.